

**Majitov Shuxrat Murtazoyevich**  
Navoiy davlat pedagogika instituti  
musiq ta'limi kafedrası  
katta o'qituvchisi

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA TARBIYASI

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarinig ahamiyati beqiyosdir. Bo'lajak musiqa mutaxassislari yosh avlod ongiga yuksak tuyg'ularni singdirish, ularda Ona Vatanga muhabbat, go'zallikka intilib yashash, uni asrash va yaratishga bo'lgan ishtiyoq uyg'otuvchi kasb egalari hisoblanadilar.

**Kalit so'zlar:** sorbix, konsepsiya, intellektual, emotsional, strategiya, syujetli.

## МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

**Аннотация:** Значение музыкального воспитания в дошкольных образовательных организациях несопоставимо, необходимо воспитывать в сознании будущих музыковедов молодого поколения высокие чувства, любить Родину, жить в стремлении к красоте, беречь и создавать его. считаются профессионалами.

**Ключевые слова:** сорбикс, концепция, интеллектуальный, эмоциональный, стратегия, сюжет.

## MUSIC EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

**Abstract:** The importance of musical education in preschool educational organizations is incomparable; it is necessary to cultivate high feelings in the minds of future musicologists of the younger generation, to love the Motherland, to live in the pursuit of beauty, to cherish and create it. They are considered professionals.

**Key words:** sorbix, concept, intellectual, emotional, strategy, plot. Key words: sorbix, concept, intellectual, emotional, strategy, plot.

Jahon ta'lim tizimida fan va innovatsion faoliyatning yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda-musiqa tarbiyasi, uning taraqqiyoti timsolida yurtimizning porloq kelajagini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan, estetik tarbiyasining vazifalari bilan bog'liq bo'lib, umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatga jalb etish, badiiy musiqaga estetik idrok etishni va emotsional o'zlashtirishni rivojlantirish, musiqali qobiliyatni o'stirish, musiqali didni shakllantirish, bolalarda badiiy ijodkorlik iqtidorini rivojlantirishdan iborat bo'lishiga oid vazifa va mazmunini aniqlash muhimdir.

Ilk marotaba ushbu muammolarning dolzarbligiga oid jahon olimlarining diqqatini jalb etgan tizimda, bolalar bog'chasini tashkil etishda mashhur nemis pedagogi Fridrix Fryobelning zamonaviy g'oyasi bilan amalga oshgan. XIX asrning 40-yillarida Germaniyaning sorbix deb ataladigan kichik shaharchasida «bolalarni parvarishlash tashkiloti» tashkil etilganligi jahon tarixida ma'lum. Dunyodagi har bir davlat maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimining rivojlanishiga o'z faoliyatidan kelib chiqqan holda rejalar dasturi va "konsepsiya"si asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirib kelmoqda. Davlat maktabgacha ta'lim tizimiga jalb qilingan bolalar soni bo'yicha Fransiya dunyoda birinchi o'rinni egallab kelgan. Ushbu davlatning maktabgacha pedagogikasi mahalliy olimlaridan (P.Kergomar, S. Frenet) va xorijiy o'qituvchilardan (M.Montessori, J.O.Dekroli, J.Piaget) ta'limning eng yaxshi nazariyalarini o'zlashtirganlar.

Toshkent shahrida Yuneskonning 2022-yil, 14-16-noyabr kunlari "Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishga bag'ishlangan" 2-Butun jahon konferensiyasi bo'lib o'tdi. Maktabgacha

ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha keyingi 10 yillikda 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish bo'yicha O'zbekiston birinchi o'rinda etakchilik qilingani e'lon qilindi.

Respublikamizda uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va innovatsion texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarni yoshiga qarab turli musiqiy-multimedialar orqali bilim-ko'nikma va malakalarini shakllantirish va bosqichma-bosqich maktabga tayyorlab borish metodlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshirilishi lozimdir. Hozirda respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimida xususiy, davlat, xususiy sherikchilik, oilaviy, idoraviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat ko'rsatib bormoqda. Bularning aksariyat qismi davlat tasarrufida bo'lib, qolganlari xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari hisoblanadi.

Musiqiy ta'limning oliy maqsadi: yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda musiqa boyligini idrok eta oladigan, etuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan qilib voyaga etkazishdan iboratdir. Bunda nafosat tarbiyasining ahamiyati benihoya kattadir.

Nafosat tarbiyasining mazmuni serqirra bo'lib, musiqa tarbiya eng asosiy o'rinni egallaydi. Xalq pedagogikasi o'sib, rivojlanib borayotgan bir davrda xalq musiqiy namunalarini o'rganish atoqli san'atkorlar ijodidan mashg'ulot jarayonida keng foydalanish musiqa tugragi rahbari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligi ta'kidlanadi. Musiqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga urgatadi.

Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir kursatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va g'oyaviy-axloqiy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir al-Forobiy «Bu fan tanning sog'ligi uchun foydalidir», degan edi. Bobomiz Shayx Sa'diy aytgan edi: «Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir». Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir.

Musiqa inson ruhiyatining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Musiqadan turli o'zuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni his eta oladigan, o'z kasbiga, ona Vataniga mehr qo'ygan bo'lishi kerak. Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash, musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun musiqa o'qituvchisining oldiga qo'yilgan vazifalari quyidagilardir:

1. Bolalarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish va muhabbatni oshirish.
2. Musiqiy faoliyatlar jarayoni badiiy ijodkorlik va his-tuygularni rivojlantirish.
3. Asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash.
4. Musiqa darslarida kasb-hunar va mehnatga nisbatan o'quvchilarda ishtiyoq uyg'otish kabi

ishlarni amalga oshirish kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqa tugragi rahbarining faoliyat miqyosi kengdir. Mashg'ulotlardan tashqari musiqa tarbiyasi turlarini tashkil etish va boshqarish, maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllarini (san'atkorlar bilan uchrashuvlar, leksiya-konsertlar, shoirlar bilan uchrashuvlar, ko'rik tanlovlari, bayramlarni) uyushtirish musiqa mashg'ulotlari rahbarining zimmasidagi vazifadir. Shu bilan birga, muassasadan tashqari musiqa tarbiyasi markazlari (bolalar musiqa maktablari, o'quvchilar saroylari, bolalar teatri) bilan aloqada bo'lib, iqtidorli bolalarni ularga jalb etish va ularning faoliyatini bog'cha hayotida qo'llash ham musiqa rahbarining zimmasidadir. Musiqa ta'limini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchisi, tayyorlov bosqichi.

Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad – bolalarning musiqa o'quvini o'stirishdir. Shu vaqt mobaynida bolalar musiqa tovushlarining baland-pastligi va cho'zimi kabi o'ziga xos xususiyatlarni ajrata bilishga o'rganishlari va nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari kerak. Ikkinchi bosqichda nota savodi, ya'ni bevosita musiqa tovushlarining grafik usulda ifodalanishi – nota yozuvini o'rganishga kirishiladi.

Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqa asarlari kichikintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at

**164** bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Ashula aytish usuli, janrdagi musiqa asarlari, xususan, syujetli cholg'u pyesalarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqa mashg'ulotlari ko'pincha badiiy so'z bilan belgilanadi.

Bola badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalaniladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotlari kichkintoylarda badiiy estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ijodiy fikri va nutqini o'stiradi. Bundan tashqari, musiqaviy o'yin va postanovkalar, raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi hamda qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta'limda bolalar, asosan, notalarning tuzilishi, sanalishi hamda qo'shiq kuylashdagi turli holatlarini bilishi, qo'shiqlarni ijro etganda qo'shiq turlarini farqlay olishi hamda qo'shiq janrlarini bilishi, bola ongini tezkor sur'atda rivojlantirishda musiqa tarbiyasi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jalilova S.X., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / Toshkent – 2017.
2. Boltayev B., Xodjayev J. A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi. Darslik. – Samarqand: SamDU nashriyoti. 2021.
3. Sharipova G.M., Yakubova Sh.A. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi: Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. -Toshkent. 2007.
4. Ravshan Abdurahmonov, Samandar Mahkamjonov. Bolalar bog'chasida musiqa. «Iste'dod ziyo press» nashriyoti, Namangan. 2022.